RAQAMLI IQTISODIYOT VA SUN’IY INTELLEKT: BARQAROR TRANSFORMATSIYANING YANGI DAVRI

Abduraxmonova Manzura Manofovna
Farg‘ona davlat universiteti
Sotsiologiya fanlari doktori (DSc), professor

Dadaboyev Farhodjon Fozilovich
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi
falsafa fanlar bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
ORCID iD: 0009-0009-0441-9507

Annotatsiya:
Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy omillari, sun'iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyotga integratsiyalashuvi mamlakat barqaror taraqqiyotining muhim omili ekanligi to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘z: *raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, barqaror transformatsiya, texnologik innovatsiya, iqtisodiy taraqqiyot, raqamli infratuzilma, axborot texnologiyalari, innovatsion rivojlanish, iqtisodiy barqarorlik, raqamlashtirish*.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot jadal raqamlashtirish va sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining rivojlanishi ta'sirida tubdan o‘zgarmoqda. Raqamli iqtisodiyot nafaqat texnologik fenomen, balki ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yangi paradigmasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Amerikalik tadqiqotchilar D.Tapskott va E.Tofflerlarning ta'kidlashicha, "Raqamli iqtisodiyot jamiyatga yangi boylik va imkoniyatlar olib keladi" [1: 47.]. Bu jarayon O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda ham yangi istiqbollarni ochib bermoqda. Raqamli iqtisodiyot inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab olib, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va savdo munosabatlarini yangi bosqichga ko‘tarmoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyalari iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirish, prognozlash va optimallashtirish imkonini beradi [2: 12.]. Shu boisdan ham raqamli iqtisodiyotda AI ning roli tobora oshib bormoqda. Ushbu jarayon biznes yuritish, olinadigan samara ko‘paytirish bo‘yicha qarorlar qabul qilish sifatini tubdan yaxshilamoqda. O‘z navbatida raqamli texnologiyalar asosidagi iqtisodiy munosabatlar jamiyatda inson faoliyatining yangi ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayon iqtisodiyotni quyidagi kategoriyalarda ko‘rib chiqish imkonini vujudga keltiradi: inson–texnologiya–qiymat. Shunday ekan, raqamli iqtisodiyot inson faoliyati sifatida tushunilishi va aniqlanishi kerak.

Ta'kidlash lozimki, raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt bir-biri bilan uzviy bog‘liq, ya'ni AI raqamli transformatsiyaning asosiy dvigatellaridan biri hisoblanadi [3: 368.]. Raqamli iqtisodiyotning ishlab chiqarish faoliyatidan farqi shundaki, u iqtisodiyotning barcha sohalarida — ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, ayirboshlash, savdo-sotiq va iste'molchi xulq-atvorini bashoratlashda namoyon bo‘ladi. Raqamli iqtisodiyotning sub'yekti shaxs, korxona, davlat tuzilmalari va xalqaro tashkilotlar hisoblanadi. Raqamli transformatsiyaning maqsadi yuqori samaradorlikka erishish va jamiyat farovonligini oshirishdan iborat, ammo uni faqat foyda olish deb tushunmaslik kerak. Chunki raqamli texnologiyalar joriy etilganda ham kishilarning muayyan ehtiyojlari qondiriladi, milliy raqobatbardoshlik oshiriladi, mehnat bozori yangilanadi, davlat byudjeti to‘ldiriladi, ta'lim va sog‘liqni saqlash sohalariga hissa qo‘shiladi, innovatsion g‘oyalar hayotga joriy etiladi.

Raqamli iqtisodiyot bilan shug‘ullanuvchi korxona yoki shaxs muayyan hajmdagi intellektual va moliyaviy sarmoyaga ega bo‘lishi bilan bir qatorda chuqur texnologik, iqtisodiy bilimlarga, o‘z sohasida puxta tajriba, innovatsion fikrlash va irodaga ega bo‘lishi kerak. Raqamli transformatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari bozor iqtisodiyoti hosilasi va erkin faoliyat ekanligi, tavakkalchilik bilan bog‘liqligi, yangi ishlab chiqarish turi va tarmoqlarining paydo bo‘lishi, yangi tovar va xizmat turlarining yaratilishi, zamonaviy texnologiyalarni ijtimoiy hayotga joriy etish jarayonida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Ta'kidlash lozimki, raqamli iqtisodiyot falsafasi insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan texnologik rivojlanishning o‘ziga xosligini ochib beruvchi, inson faoliyatining yangi turi ekanligini ta'kidlovchi ijtimoiy-iqtisodiy mazmundagi qarashlar tizimidir. Bunday ta'rif raqamli iqtisodiyot falsafasining mazmun tomonini ochib berish imkonini yaratadi. O‘zbekiston Respublikasining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish to‘g‘risida”gi qonuni asosida raqamli iqtisodiyot faoliyati tartibga solingan[4]. Ushbu qonunda ta’riflanishicha, "raqamli iqtisodiyot — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va mas'uliyat ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor iqtisodiy faoliyatdir". Bu ta'rif ayni paytda ham raqamli iqtisodiyotning, ham uning falsafiy asoslarining mohiyatini ochib beradi.

Sun'iy intellektning raqamli iqtisodiyotdagi o‘rni va dastlabki shart-sharoitlari qanday shakllanishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu jarayon "texnologiya va inson" munosabatlari bilan bog‘liq. Inson raqamli iqtisodiyotda asosiy harakatdagi shaxs hisoblanadi. Uning faolligi, ijodkorligi, texnologik savodi va maxsus bilimlarga egaligi raqamli transformatsiya sohasidagi yutuqning garovidir. Akademik S.S.G‘ulomovning fikricha, “raqamli iqtisodiyot sub'yekti to‘la yoki qisman o‘z intellektual mablag‘iga ega

bo‘lgan g‘ayratli inson bo‘lib, u ushbu resurslarni o‘z ishini tashkil qilish uchun ishga soladi” [7: 178.].

Matchonov S. va boshqalarning “Sun'iy intellekt asoslari” darsligida ta'kidlanishicha, AI texnologiyalari nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, balki ijtimoiy muammolarni hal etishga ham xizmat qilishi mumkin [5: 48.]. Raqamli iqtisodiyot falsafasi o‘zining jamiyatdagi maqomi bilan innovatsion ruhini bevosita aks ettirib, bu masalaning yechimiga o‘z munosib hissasini qo‘shishi mumkin. Qayd etish lozimki, raqamli iqtisodiyot falsafasi ilg‘or texnologik g‘oyalarni ijtimoiy-iqtisodiy amaliyotda qo‘llashga alohida e'tibor berish bilan tavsiflanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyevning “Shu maqsadda bank tizimi va moliya institutlari, o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib, raqamli iqtisodiyot sub'yektlariga moliyaviy ko‘mak va madad berishni zimmalariga oladi. Lo‘nda qilib aytadigan bo‘lsak, banklar endi xalqimizni raqamli texnologiyalarga, innovatsion iqtisodiyotga o‘rgatishi va shunga yetaklashi lozim bo‘ladi” [6: 17.] deb ta'kidlanadi. Shunday ekan, raqamli iqtisodiyot faoliyati o‘ziga shaxs tashabbusini singdirib, insonni bozor munosabatlari sharoitida faollik ko‘rsatishga chorlaydi hamda iste'molchiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni talab etadi.

Natijalar (Результаты/Results).

Inson ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining mohiyati shundaki, u kechagidan ko‘ra yaxshiroq, samarali va innovatsion yashashga intiladi. Raqamli iqtisodiyot kontekstida bu harakat aql-idrok sohibi uchun tug‘ma istak bilan birga vaqt taqozosi ham hisoblanadi. Huquqiy demokratik davlatni barpo etish davrida, fuqarolik jamiyati shakllanishi zaminida sodir bo‘layotgan ijtimoiy, iqtisodiy islohotlarda shaxsning raqamli savodxonligi bevosita, faol ishtiroki uchun asosiy mezon rolini o‘ynaydi.

Tadqiqotchi X.Do‘stmuhammadning mamlakatimizda rivojlanayotgan bozor munosabatlari va jahonda kechayotgan global muammolar mazmuni tadqiqiga bag‘ishlangan maqolasida ta'kidlanishicha, zamonaviy texnologik inqilob sharoitida “Tezroq! Ko‘proq! Unumliroq!” tushunchalari jamiyatda shaxs harakatining mezonidir [8: 45.]. Yuqorida ta'kidlanganidek, fuqarolik jamiyati shakllanishi davrida ana shu shiorlar bilan olg‘a qarab harakat qilyapmiz va rivojlangan davlatlar qatoridan o‘z munosib o‘rnimizni egallashga intilyapmiz. Sun'iy intellekt texnologiyalari iqtisodiyotning barcha sohalariga kirib borishi bilan birga jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlar shakllanmoqda, yangi kasblar va imkoniyatlar vujudga kelmoqda.

Davlat organlari va raqamli iqtisodiyot sub'yektlari o‘rtasida o‘zaro munosabatlarning bevosita elektron shakllari “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha 2020–2023 yillarda bosqichma-bosqich 258 ta davlat xizmati Internet tarmog‘i orqali Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan foydalanish imkoniyati yaratildi. Bugungi kunda ulardan 500 turdagi interaktiv xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega. Hozirgi

sharoitda soliq va statistika hisobotlari 100 foiz elektron shaklda Internet tarmog‘i orqali davlat idoralariga taqdim etilmoqda [9: 17.].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi sun'iy intellektni iqtisodiy hayotga kengroq integratsiyalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu strategiya doirasida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish xususiy sektorni raqamlashtirish konsepsiyasi ilgari surildi. Bugungi kunda raqamli infratuzilmani shakllantirish yo‘li bilan yuksak iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikka erishish ishlari jadal olib borilmoqda [10].

Raqamli iqtisodiyot falsafasi o‘z sohasida inson rolini yuqori ko‘taradi, shaxs raqamli transformatsiya shakllanishiga yordam beradi, samarali faoliyatga mo‘ljallangan professional va hayotiy dasturlarni amalga oshirishda mustaqil qadam qo‘yish zarurligini tushunish qobiliyatini tarbiyalaydi. Raqamli iqtisodiyot falsafasi fuqarolik jamiyati shakllanishida iqtisodiy so‘rovlar va talablariga javob beradigan, barqaror rivojlanish va taraqqiyotda takomillashishda bo‘lgan aniqlikni talab qiladigan falsafiy muammodir.

Muhokama (Обсуждение/Discussion).

Raqamli iqtisodiyot va innovatsion fikrlash ota-bobolarimizga xos xislatlar asosida bugungi texnologik davr talablariga javob berib rivojlanmoqda. O‘lkamizning Qadimgi Xitoy, Hindiston, Bobil va Yevropa davlatlari bilan o‘rnatgan iqtisodiy va madaniy aloqalari doimo innovatsiyani taqozo etgan. Buyuk ipak yo‘li aslida iqtisodiy transformatsiya namunasi, xalqimizning turli davlatlar va qit'alar bilan o‘rnatgan iqtisodiy, madaniy aloqalarining ifodasidir. Amir Temurning “Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi bo‘lgan, azmi qat'i, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan afzaldir” [10] so‘zlari bugungi raqamli iqtisodiyot uchun ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Raqamli iqtisodiyotga turlicha ta'rif berish ko‘zga tashlanadi. Masalan, A.Ortiqov unga “(ingl. digital economy; rus. tsifrovaya ekonomika) — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyat” [11] deb ta'rif beradi. Bu o‘rinda texnologik masalalarga e'tibor qaratilgani ko‘zga tashlanadi. O‘zbekiston Respublikasining "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish to‘g‘risida"gi Qonunda ham ushbu yondashishni kuzatamiz.

Iqtisod fanlari doktorlari R.Ro‘ziyev va Sh.Ro‘zinazarovlar qishloq xo‘jaligida raqamli transformatsiyani o‘rganib, quyidagicha ta'rif beradilar: "Qishloq xo‘jaligida raqamli transformatsiyaning asosiy mazmuni shundan iboratki, dehqonlarga o‘zlarining innovatsion faolligini ro‘yobga chiqarish uchun keng erkinlik berish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqargan mahsulotlarini mustaqil tasarruf etish huquqlarini kafolatlashdir" [12: 94.]. Mazkur ta'rifda raqamli transformatsiyaning ijtimoiy xarakteriga, mehnatning pirovard natijalariga e'tibor qaratiladi.

Sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari insonning raqamli iqtisodiyotdagi rolini yanada yuqori ko‘taradi. Bugungi kunda mashinali o‘qish, chuqur o‘rganish (deep learning), tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) kabi AI yo‘nalishlari iqtisodiyotda quyidagi sohalarda qo‘llanilmoqda: moliyaviy tahlil va bashorat; talabni modellashtirish va prognozlash; logistika va ta'minot zanjirlarini optimallashtirish; mijozlar xizmatini avtomatlashtirish. Ushbu texnologiyalar O‘zbekiston iqtisodiyotini raqobatbardosh va innovatsion rivojlanish yo‘liga yo‘naltirish uchun muhim vosita hisoblanadi.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha bir qator muhim qarorlar qabul qilingan. Jumladan, Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasi doirasida quyidagi yo‘nalishlar belgilangan: raqamli infratuzilmani rivojlantirish; sun'iy intellektni davlat boshqaruvi tizimiga joriy etish; raqamli savodxonlik va IT ta'limini kengaytirish; elektron tijorat va raqamli to‘lov tizimlarini rivojlantirish. Ushbu yo‘nalishlar barqaror transformatsiyaning asosi sifatida xizmat qilmoqda va mamlakatimiz raqamli iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiqish imkonini bermoqda.

Xulosa (Заключение/Conclusion).

Xulosa qilganda, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda barqaror rivojlanishini ta'minlashda raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt texnologiyalari hal qiluvchi omil bo‘lib qolmoqda. Qayd qilish lozimki, demokratik islohotlar davrida mamlakatimizda iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash xususiy sektorni raqamlashtirish konsepsiyasi ilgari surildi. Bugungi kunda raqamli infratuzilmani shakllantirish yo‘li bilan yuksak iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikka erishilmoqda. Shuning uchun ham fuqarolik jamiyati shakllanishi sharoitida raqamli iqtisodiyot va AI texnologiyalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

Bugungi kunda, ya'ni taraqqiyotning yangi bosqichida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar har bir iqtisodiy sub'yektdan raqamli faollikni, innovatsiyalarni talab etadi. O‘zining hayotiy pozisiyasini, huquqlarini himoya qilish fuqaroni ijtimoiy faol sub'yektga aylantiradi. Biroq ushbu imkoniyatdan samarali foydalanish raqamli bilimlar majmuasini, huquqiy madaniyatni, ayniqsa stereotiplardan farq qiluvchi, noan'anaviy yondashishlarni, tashkilotchilik va zamonaviy mazmundagi innovatsion faollikni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilgan raqamli iqtisodiyotni bosqichma-bosqich shakllantirish, tashabbuskorlik va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, texnologik erkinliklarni chuqurlashtirish, sun'iy intellektni rag‘batlantirishda iqtisodiy omillar va shaxs intellektual imkoniyatlarini ishga solish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, raqamli iqtisodiyot va AI – bu faqat texnologik masala emas, balki jamiyatning barcha a'zolari uchun yangi imkoniyatlar va mas'uliyatlar manbaidir. O‘zbekiston bu yo‘lda dadil qadamlar qo‘ymoqda va xalqaro tajribani o‘rganib, o‘ziga